



MARKAZIY OSIYODAGI ANKLAV VA EKSKLAV HUDUDLARNING MINTAQA DAVLATLARI DIPLOMATIK MUNOSABATLARIGA TA'SIRI

Abdullayev Jamshid Izzatullayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchisi

Email:abdullayevjamshid19900131@gmail.com

Tel: +998 99 617 31 90

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15240313>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 18-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Anklav, O'rta Osiyo, eksklav,
delmitatsiya, demokratsiya,
Milliy-hududiy chegaralanish,
transchegaraviy boshqaruv.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqola Markaziy Osiyodagi anklav va eksklav hududlarining shakllanish jarayoni, ularning paydo bo'lish sabablari hamda mintaqada davlatlari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga ta'sirini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola doirasida asosan O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi asosiy anklav hududlari tahlil qilinib, ularning transchegaraviy boshqaruv, resurslardan foydalanish, harbiy-siyosiy vaziyat va diplomatik jarayonlarga ta'siri yoritiladi.

Markaziy Osiyodagi anklav va eksklav hududlarining shakllanishi murakkab geosiyosiy, tarixiy va etnik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu fenomen mintaqada davlatlari o'rtasidagi hududiy nizolar hamda diplomatik munosabatlar dinamikasiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur hududiy bo'linish masalasi, asosan, XX asrning birinchi yarmida Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayonlariga borib taqaladi. Sovet ma'muriyati tomonidan qabul qilingan chegaraviy chiziqlar markazning boshqaruv manfaatlariga asoslangan bo'lib, ular ko'pincha tabiiy-geografik hamda etnik-ma'muriy yaxlitlik tamoyillariga zid ravishda amalga oshirilgan. Anklav va eksklav hududlarning shakllanishida bir necha fundamental sabab va omillar mavjud. Birinchidan, etnik demografik tarkibning murakkabligi natijasida muayyan etnik guruhlar tarixiy va iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan hududlaridan ajralib, boshqa davlat hududida anklav yoki eksklav shaklida shakllangan. Ikkinchidan, tabiiy resurslarga bo'lgan strategik manfaatlar natijasida ayrim geografik hududlar muayyan davlat tarkibida qolgan holda boshqa davlat hududlari bilan o'ralgan. Uchinchidan, Sovet Ittifoqining mintaqani boshqarish tamoyillari doirasida sun'iy ravishda chizilgan chegaralar mahalliy aholi manfaatlaridan emas, balki markaziy hokimiyatning siyosiy niyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanib, mintaqada davlatlari mustaqillikka erishgach, chegaraviy nizolar va geosiyosiy muammoni vujudga keltirdi. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi anklav va eksklav hududlar mintaqaviy diplomatiyaning asosiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ular nafaqat chegara hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik muammolarini shuningdek, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini oshirmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi anklavlar transchegaraviy boshqaruv, transport kommunikatsiyalari, resurslardan foydalanish va xavfsizlik masalalari nuqtayi nazaridan mintaqaviy hamkorlikni talab etuvchi murakkab masalaga aylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotni olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash, tizimli tahlil va davriy izchilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Markaziy Osiyodagi anklav va eksklav hududlar masalasi XX va XXI asrlarda turli olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular sovet, mahalliy va g'arb tadqiqotchilari. Sovet olimlaridan B.V.Lunin sovet davrida Markaziy Osiyodagi hududiy masalalar, jumladan, anklav va eksklavlar haqida tadqiqotlar olib borgan. S.G.Agajanov Markaziy Osiyoning tarixiy-geografik masalalari va hududiy chegaralar haqida ilmiy ishlar yozgan. G'arb olimlaridan xalqaro huquqshunos Reyn Mullerson Markaziy Osiyodagi hududiy masalalar, jumladan, anklav va eksklavlar haqida tadqiqotlar olib borgan. Markaziy Osiyo va Islom dunyosi bo'yicha mutaxassis Fransuz olimi Olivier Roy mintaqadagi etnik va hududiy masalalarni o'rgangan. Vodiydagi vaziyat tarixi masalasida Frederik Starning izlanishlarini aytish mumkin. Mahalliy olimlar Sh.Jumaxanov, A.Toshpo'latov, Sh.Saidov, S.Alamanov, A.Koychuevlar ushbu tadqiqot bo'yicha ilmiy ish, maqola va kitoblar yozgan.

NATIJAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Bir qator zamonaviy davlatlar uchun o'z hududida anklav va eksklavlarga ega bo'lish odatiy hol bo'lsa-da, Markaziy Osiyodagi asosiy muammo chegaralarning muvofiqlashtirilmaganligidir, muzokara jarayonlari uzoq yillar davom etib, batamom yakunlanmagan[1]. Markaziy Osiyo davlatlari O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonda anklav va eksklav hududlar mavjud. Chegaralar bo'yicha kelishuvning yo'qligi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida turli hududiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. 1924-1927-yillarda Sovet Ittifoqi tarkibidagi Markaziy Osiyo hududlarini milliy-hududiy chegaralash (delimitatsiya) jarayoni amalga oshirilgan. Ushbu jarayonda o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman sovet sotsialistik respublikalari tashkil etilgan bo'lib, chegarani belgilash jarayoni ko'pincha etnik, iqtisodiy va geografik mezonlardan ko'ra, markaziy hokimiyatning siyosiy strategiyasiga asoslangan edi. Anklav va eksklav hududlarning shakllanishi ushbu delimitatsiya jarayonida hududiy yaxlitlikning buzilishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, Farg'ona vodiysi etnik jihatdan murakkab hudud bo'lib, bu yerda o'zbek, qirg'iz va tojik xalqlari aralash holda yashagan. Shu sababli, sovet davlati tomonidan sun'iy ravishda chizilgan chegaralar natijasida ayrim qishloqlar va shaharlar boshqa respublikalar tarkibida qolib ketdi. Sovet hukumati millatlararo birlikni mustahkamlash o'rniga, ularni bo'lib tashlash orqali boshqarishni osonlashtirishga harakat qilgan. Bu tamoyil "bo'lib tashla va hukmronlik qil" strategiyasiga mos kelib, hududiy yaxlitlikni sun'iy ravishda murakkablashtirdi. Ba'zi anklavlar iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lib, irrigatsiya tizimlari, yer resurslari yoki transport yo'llarini nazorat qilish maqsadida boshqa respublika tarkibiga kiritilgan. Ayrim hududlar Sovet Ittifoqining ichki xavfsizlik strategiyasi doirasida boshqa respublikalar tarkibiga kiritilib, strategik obyektlar muayyan markazlarga bog'langan holda shakllangan. Delimitatsiya jarayonida hududning geografik va xo'jalik xususiyatlari chegaralanishning metodologik poydevori sifatida belgilangan bo'lishiga qaramay, ularga to'liq amalga qilinmagan edi, ya'ni mintaqadagi chegaralanish uchun asos qilib olingan ikki milliy-hududiy va iqtisodiy prinsiplar Markaziy Osiyoda mavjud sharoitga to'la moslashtirilmagan edi[2, 3]. Ayniqsa, Qirg'iziston va O'zbekiston orasida 1930-1955 yillardagi geografik tamoyillarni inobatga olmasdan demarkatsiya ishlarini olib borish natijasida bir davlatning hududi

ikkinchisining hududida qolib ketgan. Bu orqali sovet hukumati mintaqada anklav/eksklav hududlar muammosini vujudga keltirgan.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalangach, avval faqat ma'muriy xarakterga ega bo'lgan ichki chegaralar endilikda xalqaro davlat chegaralariga aylandi. Bu esa ilgari nisbatan ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan anklavlar muammosini keskinlashtirdi. Jumladan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi anklav va eksklavlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga sabab bo'ldi. Anklavlarning mavjudligi chegara keskinlashuvi, transport blokadalarini, ijtimoiy va iqtisodiy cheklovlar, hatto harbiy to'qnashuvlar kabi muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, 1999, 2010 va 2021-yillarda Qirg'iziston-Tojikiston chegaralarida yuz bergan harbiy mojarolar bu hududlarning strategik jihatdan qanchalik muhim ekanligini ko'rsatdi. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi 8 ta yirik anklav sanab berilib, ularning asosiy qismi Farg'ona vodiysida joylashgani e'tiborga molik masala. Anklav va eksklavlarning mamlakatlar orasidagi o'zaro munosabatlarga ta'siri katta. Ayniqsa, chegaralarda doimiy bo'lib turadigan notinchliklar diplomatik munosabatlarga katta zarar yetkazadi. Misol uchun birgina 2017-yilda Qirg'izistonning Tojikiston va O'zbekiston bilan chegarasida 14 ta qarama-qarshilik bo'lib, 2018-yil boshida ham davom etgan[4]. 2013-yilda So'x atrofida mahalliy aholi va harbiylar o'rtasida to'qnashuvlar kuzatilgan. Bu esa mintaqaviy xavfsizlik uchun jiddiy muammo bo'lib qoldi. Anklav va eksklavlar mavjudligi, ayniqsa, Farg'ona vodiysi kabi etnik jihatdan murakkab hududlarda, davlatlar o'rtasida chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini murakkablashtirdi. Bu o'z navbatida, diplomatik muzokaralarda keskinliklarga sabab bo'ldi. Masalan, So'x tumani (O'zbekiston eksklavi va Qirg'iziston anklavi) atrofida yuzaga kelgan nizolar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni taranglashtirdi. 1955 yilgacha So'x O'zbekistonga bevosita tutash hudud bo'lgan. 1950 – 1960 yillarda esa chorvador qirg'izlar So'x – Rishton orasidagi yaylovdan vaqtincha foydalanish niyatida ijaraga olgan, biroq oraliqdagi o'sha yerlar rasmiy tarzda qaytarib berilmagan. Buning natijasida esa, So'x va Cho'ng'ara anklav hududga aylanib qolgan. Bunday holat Vorux anklavi bilan ham kuzatilgan[5].

Bunday muammolar mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan biri sifatida baholanadi. 1999-yilda Islomiy harakatlar guruhi (IMU) a'zolari So'x orqali Qirg'izistonga kirishga harakat qilganidan so'ng, O'zbekiston anklavlar atrofidagi xavfsizlik choralarni kuchaytirdi. Bu o'z navbatida anklavdagi ichki hayotni murakkablashtirdi. 2013-yili va 2020-2021 yillarda ham So'xda mojarolar yuzaga kelib, Qirg'iziston tomoni bilan diplomatik aloqalar orqali muammoni hal qilish vositalari ishga tushirildi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara va anklav muammolari Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy integratsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat birinchi rahbariyati o'z vaqtida bu masalani hal etish yo'llari ustida qattiq bosh qotirmadi va qo'shnilar bilan hududiy nizolar o'z vaqtida yechilmadi. 1999-yildan boshlab O'zbekiston anklav hududlariga kirish uchun maxsus ruxsatnoma tizimini joriy qildi, bu esa Qirg'iziston fuqarolari uchun qiyinchilik tug'dirdi. 2010-yillarda O'zbekistonning chegara siyosati Qirg'iziston bilan iqtisodiy aloqalarni susaytirdi va savdo hajmini kamaytirdi. 2010-yildagi Qirg'izistondagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik paytida Shohimardon hududida transport harakati blokadaga uchradi. 2010-yilda Qirg'izistonda sodir bo'lgan siyosiy beqarorlik anklavlar masalasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda Qirg'izistonning Batken viloyatida joylashgan O'zbekiston va Tojikistonga tegishli anklavlarda ijtimoiy tanglik yuzaga keldi. Qirg'iziston ichida joylashgan O'zbekiston

anklavlariga oziq-ovqat va yoqilg'i yetkazib berishda uzilishlar yuzaga keldi. Mahalliy aholi o'rtasida etnik mojarolar va to'qnashuvlar ro'y berdi. Bu voqealar O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston rahbariyati mustaqillikdan so'ng anklavlar va chegara muammolariga nisbatan turli bosqichlarda turlicha yondashuvlarni qo'llab kelgan. Sovet Ittifoqi qulaganidan so'ng, mintaqadagi davlatlar o'rtasida yangi mustaqil chegaralarni belgilash jarayoni anklav va eksklavlar bilan bog'liq murakkab masalalarni keltirib chiqardi. O'zbekiston rahbariyati bu muammoga xavfsizlik, milliy manfaatlar va mintaqaviy hamkorlik nuqtayi nazaridan yondashgan. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning anklav va chegara masalalariga nisbatan siyosati qat'iy xavfsizlik yondashuviga asoslangan edi. Uning davrida chegaralar minalandi, anklavlar nazoratga olindi. Qattiq viza o'rnatildi. Bular asosan qo'shni mamlakatlardan keladigan terroristik guruhlarining ehtimoliy hujumiga qarshi tayyorgarlik sabab amalga oshirilgan. Ammo, Mintaqaviy kelishuvlar sust kechgan va Qirg'iziston hamda Tojikiston bilan keskin diplomatik munosabatlar kuzatilgan.

O'zbekiston rahbarligiga Sh.Mirziyoyevning kelishi natijasida anklav va eksklav masalasida mavjud ziddiyatlarni tinch va hamkorlik asosida hal etish masalasida izchil ishlar olib borilmoqda. 2017-yil O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'izistonga rasmiy tashrif buyurib, chegara masalalarini hal qilish bo'yicha muzokaralarning yangi bosqichini boshladi. 2021-yil ikki davlat chegaraning 93% qismini aniqlab, hujjatlashtirdi. 2022- va 2023-yil Qirg'iziston va O'zbekiston hukumatlari anklav va eksklav masalasini bosqichma-bosqich hal qilish bo'yicha kelishuvga erishdi va bu masalada 25 ta hujjat imzolandi[6]. O'zbek-tojik chegarasining 20 foizi bahsli bo'lib kelgan va 2018-yilning mart oyida Sh.Mirziyoyev va E.Rahmon chegaraning ayrim uchastkalari bo'yicha kelishuv imzolagan va shundan beri chegarani belgilash bo'yicha qo'shma komissiya muntazam yig'ilmoqda. Qirg'izistonning O'zbekistondagi eksklavi Barak yuzasidan ikkala mamlakat o'rtasida anklavga harakatlanish, irrigratsiya, savdo-iqtisodiy aloqalar bo'yicha ayrim kelishmovchiliklar kelib chiqqan. Shu boisdan, 2018 yil O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida shartnoma imzolanib, Barak o'rniga Qirg'iziston chegarasida joylashgan teng maydondagi Birlashgan qishlog'iga o'zaro almashish orqali mavjud anklavga barham berildi[7]. Tojik-Qirg'iz munosabatlari esa anchagina ayanchli ahvolda. Ular orasida so'nggi yillarda 2 marta harbiy to'qnashuv sodir bo'lishi munosabatlarni anchagina izdan chiqargan. So'nggi yillarda Tojikiston va Qirg'iziston chegarasida anklavlarga oid mojarolar avj oldi. Vorux anklavi atrofidagi ziddiyatlar ayniqsa keskin bo'ldi. 2019-yil Tojikiston va Qirg'iziston chegarasida joylashgan Vorux anklavida mahalliy aholi o'rtasida mojaro chiqdi. Qirg'iziston chegarachilari tojik yo'lovchilarning hududga kirishini chekladi. Ikki tomon o'rtasida otishmalar sodir bo'ldi. Afsuski, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi 2021-yilda sodir bo'lgan qurolli chegara mojarosi ikki davlatda avvalgi mahalliy darajadan milliy miqyosdagi o'zaro adovatni olib keldi. 40 dan ortiq fuqaro halok bo'ldi. Ammo muammoga kuchli yechim izlashga urinishlar befoyda, chunki diplomatiya, murosas, doimiy muloqot va muzokaralar asta-sekin Markaziy Osiyoda hududiy nizolarni hal qilishda yetakchi usullarga aylanib bormoqda[8].

XULOSA o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyodagi anklavlarning paydo bo'lishi tarixiy jihatdan Sovet Ittifoqining milliy siyosati va sun'iy delimitatsiya jarayoni bilan bog'liq. Mustaqillikdan keyin esa ushbu hududlar davlatlar o'rtasidagi diplomatik muzokaralarning eng muhim masalalaridan biriga aylandi. Ularning geosiyosiy ahamiyati va

diplomatik murakkabligi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolarni hal qilish uchun davlatlararo muloqot, iqtisodiy integratsiya va xalqaro huquqiy mexanizmlar zarur. Kelajakda mamlakatlar orasidagi anklav masalasidagi ziddiyatlarni oldini olish maqsadida mintaqaviy diplomatik muloqotni davom ettirish, etnik guruhlar o'rtasida kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun mahalliy hamkorlikni mustahkamlash, suv va yer resurslarini adolatli taqsimlash masalarini jiddiyroq o'ylab ko'rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Г.БОЛЬШАКОВ. Урегулирование территориальных конфликтов в Центральной Азии: позитивные практики и кейс кыргызско-таджикского противостояния. Вопросы ПОЛИТОЛОГИИ. Выпуск 5 (81). Том 12. 2022 с. 1517
2. Жумаханов Ш.З., Тошпўлатов А.М. Анклавлар назарияси: географик ва геосиёсий таҳлил [Монография] –Наманган: “Наманган”, 2021. С 64
3. Ўрта Осиё коммунистик ташкилотлари тарихи. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1969. с 17
4. С. К. Аламанов. Анклавы в Центральной Азии История вопроса и современные проблемы. Постсоветские исследования. Т. 1. № 5 (2018).с. 451
5. Z. Bozorov. Anklav va eksklav hududlar, ularning mintaqa hayotidagi ahamiyati, -Termiz, 2018.
6. <https://mir24.tv/news/16539618/itogom-vizita-prezidenta-uzbekistana-v-kyrgyzstan-stalo-podpisanie-25-dokumentov>
7. A. M. Toshpulatov, U. N. Kakhkhorova. Uzbek-Kyrgyz relations: overcoming the problem of the Barak enclave / Novateur Publication's JournalNX. vol. VI, no. 6, - P. 310, 3 June 2020. <http://journalnx.com>
8. Притчин С.А. В зеркале транзитологии: особенности процессов смены власти в странах Центральной Азии и Южного Кавказа // Вестник Московского университета. Серия 25: Международные отношения и мировая политика. 2021. Т. 13. № 4